

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4

2025

APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
489 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda byudjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish.....	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Enhancing labor productivity in industrial enterprises of developed countries: experiences and strategies	426
Abduxakimova Farangiz Sidikjon kizi	
Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali "Olmaliq KMK" ajda innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....	434
Inamova Farida Usmanjanovna	
Methodological problems of accounting of fixed assets	439
Kholbekov Rasul Olimovich	
Необходимость платежной системы.....	446
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович	
Зеленое ipro как новый инструмент финансирования	451
Шахзод Сайдуллаев	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	459
Юлдуз Усманова	
Модели устойчивого развития туризма: международный опыт и возможности адаптации в узбекистане.....	471
Сальникова Елена Александровна	
Внедрение антикоррупционных стандартов iso в узбекистане	478
Исмаилов Баходир Исламович, Зокиров Саидакмал Баходир угли	
Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi	483
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	



GLOBAL MOLIYAVIY MARKAZLARNI BAHOLASH MEXANIZMI



Sharipova Shaxinabonu Orif qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0002-1544-5005

Annotatsiya: Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi zamonaviy moliya bozorlarining raqobatbardoshligini aniqlash va ularni reytinglash orqali global moliyaviy tizimning rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga xizmat qiladi. Bu baholashda eng ko'p foydalaniladigan tizim – Global Financial Centres Index (GFCI) bo'lib, u moliyaviy markazlarni turli mezonlar asosida tahlil qiladi. Baholash jarayonida biznes muhiti, moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi, infratuzilma, inson kapitali va xalqaro obro' kabi omillar inobatga olinadi. Shuningdek, ushbu tizim statistik ma'lumotlar va soha mutaxassislarning subyektiv fikrlari asosida shakllantiriladi. GFCI moliyaviy markazlar o'rtasida raqobatni oshiradi, sarmoyalarni jalb qilishda muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi va global iqtisodiy siyosatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: global moliyaviy markazlar, baholash mexanizmi, GFCI (Global Financial Centres Index), moliyaviy raqobatbardoshlik, biznes muhiti, infratuzilma, inson kapitali, moliyaviy xizmatlar bozori, reyting tizimi, xalqaro moliya, subyektiv baholash, obyektiv ko'rsatkichlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: The mechanism for evaluating global financial centres serves to study the development trends of the global financial system by determining the competitiveness of modern financial markets and compiling their rankings. The most commonly used evaluation system is the Global Financial Centres Index (GFCI), which analyses financial centres based on various criteria. The evaluation process takes into account such factors as business environment, development of financial services, infrastructure, human capital, and international reputation. In addition, this system is formed based on statistical data and the subjective opinions of industry experts. GFCI contributes to increasing competition among financial centres, serves as an important indicator for attracting investment, and influences global economic policy.

Keywords: Global financial centres, evaluation mechanism, GFCI (Global Financial Centres Index), financial competitiveness, business environment, infrastructure, human capital, financial services market, rating system, international finance, subjective assessment, objective indicators, financial stability.

Аннотация: Механизм оценки глобальных финансовых центров служит для изучения тенденций развития мировой финансовой системы путём определения конкурентоспособности современных финансовых рынков и составления их рейтинга. Наиболее часто используемой системой оценки является Глобальный индекс финансовых центров (GFCI), который анализирует финансовые центры по различным критериям. В процессе оценки учитываются такие факторы, как деловая среда, развитие финансовых услуг, инфраструктура, человеческий капитал и международная репутация. Кроме того, эта система формируется на основе статистических данных и субъективных мнений специалистов отрасли.

GFCI способствует усилению конкуренции между финансовыми центрами, служит важным показателем для привлечения инвестиций и оказывает влияние на глобальную экономическую политику.

Ключевые слова: Глобальные финансовые центры, механизм оценки, GFCI (Глобальный индекс финансовых центров), финансовая конкурентоспособность, деловая среда, инфраструктура, человеческий капитал, рынок финансовых услуг, рейтинговая система, международные финансы, субъективная оценка, объективные показатели, финансовая стабильность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va boshqarilishi global iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Bu jarayonda dunyo miqyosidagi yirik moliyaviy markazlar markaziy rol o'ynaydi. Ular nafaqat kapital bozorlarining faoliyat yuritishini ta'minlaydi, balki xalqaro investitsiyalar, bank operatsiyalari, sug'urta, aktivlarni boshqarish va boshqa moliyaviy xizmatlar uchun ham muhim platforma bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli global moliyaviy markazlarning samaradorligini tahlil qilish, ularni baholash va reytinglash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Eng ko'p qo'llaniladigan baholash tizimlaridan biri – Global Financial Centres Index (GFCI) bo'lib, u moliyaviy markazlarning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda keng qo'llaniladi. Ushbu indeks turli mezonlar asosida moliyaviy markazlarning holatini baholaydi va ularning global moliyaviy tizimdagi o'rnini aniqlab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

GFCI asoschisi, Z/Yen Group rahbari Michael Mainelli va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan Global Financial Centres Index (GFCI) baholash tizimi bugungi kunda global moliyaviy markazlarni aniqlashda yetakchi o'rinni egallaydi. Ularning fikricha, moliyaviy markazlarning o'sishi quyidagi besh asosiy omilga bog'liq: biznes muhiti, inson kapitali, infratuzilma, rivojlangan moliyaviy sektor va xalqaro obro'. Ular subyektiv fikrlar (ekspert so'rovlari) va obyektiv statistik ma'lumotlar kombinatsiyasi orqali balansli baholashga erishishni taklif etadi [1].

Iqtisodchi Richard Florida global moliyaviy markazlarning muvaffaqiyatini ijodiy sinf, inson kapitali va shahar muhitining jozibadorligi bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, moliyaviy markazlar faqat moliyaviy infratuzilma bilan emas, balki yashash sifati, madaniyat, texnologiya va ijodiy muhit bilan ham raqobatlashadi. Asosiy e'tibor – moliyaviy markazlarda innovatsion muhit va yashash darajasi yuqori bo'lishi kerak [2].

Globalizatsiya bo'yicha tadqiqotchi, "Global Cities" asari muallifi Saskia Sassen global moliyaviy markazlarni xalqaro kapital, axborot va xizmatlar oqimini boshqaradigan yadro nuqtalar sifatida baholaydi. U global shaharlarning o'rnini belgilovchi mezon sifatida moliyaviy xizmatlar darajasi va ularning boshqa hududlarga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi. Asosiy e'tibor moliyaviy markazlar nafaqat milliy, balki global iqtisodiy tizimga ham ta'sir ko'rsatadi [3].

Douglas W. Arner Kong universiteti professori bo'lib, u Hongkong moliyaviy markazini baholashda reguliator muhit, fintech texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro moliyaviy hamkorlikni alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, tez o'zgarayotgan raqamli moliyaviy xizmatlar va reguliatorlarning



moslashuvchanligi markazlarning barqaror o'sishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Asosiy e'tibor moliyaviy innovatsiyalar va texnologiyalarni qamrab olgan baholash yondashuvlariga ehtiyoj bor [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmini o'rganish uchun kombinatsiyalashgan yondashuv (miqdoriy va sifatli tahlil) qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global moliyaviy markazlar o'rtasidagi raqobatni tahlil qilish va baholashning tarixiy ildizlari XX asrning oxiriga borib taqaladi. Aynan shu davrda xalqaro moliya bozorlarining o'sishi va global savdoning kuchayishi moliyaviy markazlar o'rtasidagi raqobatni yanada keskinlashtirdi. Bu jarayonda investorlar va moliyaviy tashkilotlar uchun qaysi markazlar iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hamda qulay ekani aniqlanishi zaruratga aylandi.

Global Financial Centres Index (GFCI) 2007-yilda Z/Yen Group tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, global moliyaviy markazlar reytingini tuzish bo'yicha eng muhim tizimlardan biri hisoblanadi. GFCI indeksining yaratilishidagi asosiy maqsad – moliyaviy markazlarni o'zaro solishtirish, ularga investitsiya jalb qilish salohiyatini baholash va eng jozibador markazlarni aniqlashdir.

GFCI'ning dastlabki nashridan so'ng indeksda qatnashuvchi markazlar soni va tahlil mezonlari bosqichma-bosqich kengayib bordi. Bugungi kunda GFCI reytingi nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki texnologik rivojlanish, infratuzilma, inson kapitali va xalqaro obro' kabi ko'plab omillarni ham inobatga oladi.

GFCI har yili yangilanadi va hozirda dunyo miqyosidagi eng muhim moliyaviy markazlarni baholashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Reytingda doimiy yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan shaharlar – London, Nyu-York, Singapur va Gonkong – moliyaviy barqarorlik hamda innovatsion imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, Shenzhen, Shanxay va Dubay kabi yangi markazlar ham tez sur'atlarda rivojlanib, global iqtisodiy tizimda o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda.

Mazkur reyting tizimi moliyaviy markazlar raqobatini kuchaytirgan va ularni baholashda yanada kompleks va dolzarb yondashuvlarni shakllantirishga olib kelgan. GFCI tizimi global investitsiyalarni jalb qilishda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda va moliyaviy markazlar o'rtasidagi sog'lom raqobatni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [5].

Global Financial Centres Index (GFCI) – moliyaviy markazlarni baholovchi xalqaro reyting bo'lib, har yili ikki marotaba e'lon qilinadi. U dunyoning eng nufuzli moliyaviy shaharlari o'rtasidagi raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi. GFCI reytingi ikki asosiy manba asosida shakllantiriladi:

1. Obyektiv ko'rsatkichlar – iqtisodiy va ijtimoiy-statistik ma'lumotlar (Jahon banki, BMT, OECD, XIMF va boshqa manbalar asosida);

2. Subyektiv baholash – moliyaviy soha mutaxassislari tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalar asosida shakllanadigan fikrlar.

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- Biznes muhiti – qonunchilik, soliq siyosati, tartibga solish darajasi;
- Moliyaviy sektorning rivojlanganligi – xizmatlar turlari, innovatsion salohiyat;
- Infratuzilma – texnologik, aloqa va transport imkoniyatlari;
- Inson kapitali – malakali kadrlar mavjudligi, ta'lim darajasi;
- Xalqaro obro' – brend, imij, ishonchlilik darajasi.

GFCI reytingida yuqori o'rinlarni muntazam egallab kelayotgan markazlarga Nyu-York, London, Singapur, Gonkong va San-Fransisko kabi shaharlar kiradi. Bu moliyaviy markazlar nafaqat moliyaviy imkoniyatlari, balki qulay biznes muhiti, rivojlangan infratuzilma va tartibga solish yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Mazkur baholash tizimi global investorlar, siyosatchilar va moliyaviy tashkilotlar uchun ishonchli axborot manbai hisoblanadi. Chunki u sarmoya kiritish uchun qulay hududlarni aniqlashda yordam beradi va moliyaviy markazlar o'rtasidagi raqobat muhitini sog'lomlashtiradi.

GFCI natijalari moliyaviy markazlar o'rtasidagi raqobatni yaqqol ko'rsatadi. Ayrim shaharlar, xususan, Singapur va Shenzhen, yuqori texnologik infratuzilma va innovatsion moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish orqali reytingda yuqori o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dunyoning yetakchi moliyaviy markazlari global moliya tizimida barqarorlikni saqlab qolishda davom etmoqda. Bu esa jahon iqtisodiy siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

GFCI reytingi mamlakatlar va shaharlar uchun strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U iqtisodiy siyosatni belgilash, sarmoya jalb qilish strategiyalarini ishlab chiqish va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni shakllantirishda keng qo'llaniladi.

Global moliyaviy markazlarning rivojlanishi va o'zgarishlari doimiy ravishda monitoring qilinadi. GFCI tahlillari shuni ko'rsatadiki, ayrim markazlar o'z infratuzilmasini yangilash, huquqiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash orqali reytingdagi pozitsiyalarini yaxshilayapti. Boshqa tarafdin esa, ba'zi markazlar iqtisodiy inqirozlar yoki siyosiy noaniqliklar tufayli o'z mavqeyini yo'qotmoqda.

Masalan, Londonda Brexit jarayonining moliyaviy markaz sifatidagi ta'siri sezilgan bo'lsa-da, Buyuk Britaniya hukumati tomonidan sarmoyalarni jalb qilish va moliyaviy sektorni modernizatsiya qilishga qaratilgan choralar bu salbiy o'zgarishlarni kamaytirishga yordam berdi. Xitoyning Shenzhen va Shanxay shaharlari esa iqtisodiy o'sish va texnologik innovatsiyalar asosida yangi global moliyaviy markazlar sifatida maydonga chiqmoqda.

Hozirgi kunda moliyaviy markazlar reytingiga yangi texnologiyalar, xususan, blokcheyn va sun'iy intellekt sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu texnologiyalar moliya sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, kriptovalyutalar, raqamli banklar va fintech kompaniyalarning rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Masalan, Singapur va Gonkong fintech sohasida yetakchilikni mustahkamlab, reytingda sezilarli darajada yuqori o'rinlarga ko'tarildi. Bunday texnologik innovatsiyalar moliyaviy xizmatlar bozorini kengaytiradi, raqobatni kuchaytiradi hamda moliyaviy markazlarni sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Moliyaviy markazlar reytingini belgilovchi yana bir muhim omil – ijtimoiy va siyosiy barqarorlikdir. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy markazlar uchun yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda, biroq bu jarayon siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni talab qiladi. Har qanday beqarorlik investitsiya muhiti va reyting salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

GFCI va boshqa reyting tizimlari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kelgusi yillarda Singapur, London, Nyu-York va Gonkong kabi yetakchi moliyaviy markazlar o'z pozitsiyalarini saqlab qolishlari kutilmoqda. Shu bilan birga, Dubay, Shenzhen va Mumbay kabi yangi va rivojlanayotgan markazlar ham raqobatni kuchaytirishi mumkin.

Yangi texnologiyalar, jumladan, fintech va kriptovalyutalar global moliyaviy markazlar reytingini yangilab bormoqda. Bu jarayon global iqtisodiy integratsiya va sarmoya oqimlarini yangi shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik omili kelajakda moliyaviy markazlarning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi, xususan Global Financial Centres Index (GFCI), dunyo bo'ylab moliyaviy markazlarning raqobatbardoshligini va ularning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy markazlar o'rtasida raqobat tobora kuchaymoqda. Ba'zi yangi markazlar esa reytingda yuqori o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'lmoqda.


Moliyaviy sektorni innovatsion texnologiyalar bilan rivojlantirish, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash moliyaviy markazlar muvaffaqiyatining asosiy omillari bo'lib qolmoqda. GFCI kabi reytinglar sarmoyadorlar va siyosatchilar uchun yo'naltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular global investitsiya strategiyalarini shakllantirishda, moliyaviy markazlar tanlovida va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.



Kelajakda global moliyaviy markazlarni baholash tizimini takomillashtirish orqali nafaqat raqobat muhitini kuchaytirish, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro sarmoya oqimlarini samarali boshqarish imkoniyati ham kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mainelli, M., & Yeandle, M. (2007). *The Global Financial Centres Index*. Z/Yen Group. <https://www.longfinance.net/programmes/financial-centre-futures/global-financial-centres-index>
2. Florida, R. (2002). *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure and Everyday Life*. Basic Books.
3. Sassen, S. (2001). *The Global City: New York, London, Tokyo* (2nd ed.). Princeton University Press.
4. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). Fintech, Regtech, and the Reconceptualization of Financial Regulation. *Northwestern Journal of International Law & Business*, 37(3), 371–413.
5. World Economic Forum. *The Global Competitiveness Report 2023*. – Geneva: WEF, 2023. – 426 p.
6. IMF. *Financial Soundness Indicators Compilation Guide*. – Washington: International Monetary Fund, 2019. – 384 p.
7. Basel Committee on Banking Supervision. *Core Principles for Effective Banking Supervision*. – Basel: BIS, 2012. – 98 p.
8. 5. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/iqtisodiyot/xalqaro-moliyaviy-markazlar>
9. 6. E.D. Alimardonov "Xalqaro moliyaviy markazlar" Nihol Print-2023 y.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100